


2019-yil 1-dekabr holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 2 574 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 146 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 239 ta (20,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 13 323 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga 13 323 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,2 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 27,1 % savdo, 13,4 % sanoat, 10,2 % qurilish, 12,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 23,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'ycha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlikda		01.12.2019 yil	
	01.12.2018 yil	01.12.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	11 084	13 323	120,2	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 392	1 675	120,3	12,6
Sanoat	1 331	1 782	133,9	13,4
Qurilish	1 029	1 353	131,5	10,2
Savdo	2 922	3 613	123,6	27,1
Tashish va saqlash	592	611	103,2	4,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	614	845	137,6	6,3
Axborot va aloqa	164	179	109,1	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	130	150	115,4	1,1
Boshqa turlari	2 910	3 115	107,0	23,4


Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (4 044 ta), Sirdaryo (2 062 ta), Sayxunobod (1 095 ta) va Guliston (1 021 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (313 ta), Sardoba (562 ta) hamda Oqoltin (595 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 12 533 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 244 ta (21,8 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 27,0 % savdo, 13,5 % sanoat, 10,3 % qurilish, 12,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,5 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 23,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3 789 ta), Sirdaryo (1 860 ta), Sayxunobod (1 055 ta) Boyovut (970 ta) va Mirzaobod (956 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (290 ta), Sardoba (541 ta) hamda Oqoltin (576 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-noyabr oylarida 2 574 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 80,3 % ga ko'pdir.

Yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Guliston shahri (654 ta), Sirdaryo (370 ta), Boyovut (205 ta) va Guliston (206 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (65 ta), Xovos (159 ta) hamda Sardoba (155 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (875 ta), sanoat (512 ta), qurilish (297 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (326 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (23 ta), axborot va aloqa (25 ta) hamda tashish va saqlash (50 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga ko'ra 10 438 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2 896 ta, oilaviy korxonalar - 173 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7 065 ta va boshqalar 304 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonalar



Oilaviy korxonalar



Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-dekabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 157 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 51 ta ga yoki 48,1 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-dekabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 157 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Sirdaryo (55 ta), Guliston shahri (34 ta), Yangiyer shahri (20 ta) va Sayxunobod (10 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam esa Guliston (2 ta), Shirin shahri (4 ta), Oqoltin (3 ta) hamda Sardoba (5 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 105 tasi qo'shma korxonalar, 52 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Sirdaryo viloyati	157	100,0
Oqoltin tumani	3	1,9
Boyovut tumani	7	4,5
Sayxunobod tumani	10	6,4
Guliston tumani	2	1,3
Sardoba tumani	5	3,2
Mirzaobod tumani	10	6,4
Sirdaryo tumani	55	35,0
Xovos tumani	7	4,4
Guliston shahar	34	21,7
Shirin shahar	4	2,5
Yangiyer shahar	20	12,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 49 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Guliston shahar (13 ta yoki jamidagi ulushi 26,5 %), Sirdaryo tumani (7 ta yoki 14,3 %) va Yangiyer shahri (9 ta yoki 18,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Shirin shahar (2 ta yoki 4,1 %), Sardoba tumani (1 ta yoki 2,0 %) va Guliston tumani (1 ta yoki 2,0%) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida-3 ta, Turkiya Respublikasi-6 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-9 ta, Qozog'iston Respublikasi-7 ta va Koreya Respublikasi-3 ta, Tojikiston Respublikasi-7 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (28 ta), savdo (11 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (5 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqada (2 ta) hamda qurilish (3 ta), tashkil etgan.


2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-dekabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10 389 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-dekabr holatiga qaraganda 26,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3 279 tasi (31,6 %) Guliston shahri, 1 597 tasi (15,4 %) Sirdaryo, 880 tasi (8,5 %) Sayxunobod hamda 797 tasi (7,7 %) Mirzaobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jami ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10 389 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3 373 tasi (32,5 %)-savdo, 1 671 tasi (16,1 %)-sanoat, 1 285 tasi (12,4 %)-qurilish, 1 497 tasi (14,4 %)-qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 793 tasi (7,6 %)-yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 555 tasi (5,3 %)-tashish va saqlash, 161 tasi (1,5 %)-axborot va aloqa sohasi, 101 tasi (1,0 %)-sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 953 tasi (9,2 %)-boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-noyabr oylarida 2 461 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 91,7 % ga oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (614 ta), Sirdaryo (362 ta), Sayxunobod (199 ta) va Guliston tumanlari (197 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (60 ta), Sardoba (145 ta) hamda Xovos (154 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (875 ta), sanoatda (512 ta), qurilishda (297 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (324 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (23 ta), axborot va aloqada (25 ta) hamda tashish va saqlashda (50 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yi 1-dekabr holatiga 186 tani tashkil etib, ulardan 173 tasi yoki 93,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 46,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 45,7 % yoki 79 tasi sanoat, 15,6 % yoki 27 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,5 % yoki 25 tasi savdo, 18,5 % yoki 32 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 4,0 % yoki 7 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalarini soni, birlikda**


	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Sirdaryo viloyati	96	100,0
Oqoltin tumani	19	19,8
Boyovut tumani	6	6,2
Sayxunobod tumani	-	-
Guliston tumani	9	9,4
Sardoba tumani	-	-
Mirzaobod tumani	5	5,2
Sirdaryo tumani	19	19,8
Xovos tumani	3	3,1
Guliston shahar	25	26,1
Shirin shahar	1	1,0
Yangiyer shahar	9	9,4

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 96 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 5,1 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Guliston shahri (25 ta), Sirdaryo (19 ta), Yangiyer shahri (9 ta) va Guliston tumani (9 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (1 ta) hamda Mirzaobod (5 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Sanoat



Savdo



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi



Boshqa turlari

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 57,3 % yoki 55 tasi sanoat, 7,3 % yoki 7 tasi savdo, 8,3 % yoki 8 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 26,1 % yoki 25 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 1,0 % yoki 1 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi statistik registrlarni
yuritish bo'limi Tel.:(67)236-86-37